

YURTIMIZDAGI HAQIQIY MATONAT EGALARINING IJTIMOIIY HAYOTDA O‘Z O‘RNINI TOPISHIDA DAVLAT SIYOSATINING AHAMIYATI

Yusifboyev Muhammad Tangir o‘g‘li

*O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren,
demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.*

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-modda)

Annotatsiya: Quyidagi ilmiy maqolada Yurtimizda matonat egalariga yaratilayotgan imkoniyatlar va ularga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Matonat va qat‘iyatga ega shaxslar, o‘zining kuchli iroda va mehnati bilan jamiyatda sezilarli o‘zgarishlarni amalga oshirishadi. Shu bois, davlat tomonidan ularga ta‘lim, ish o‘rinlari yaratish, sog‘liqni saqlash va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda. Islohotlar, ayniqsa, yoshlarning kasb-hunarli bo‘lishi, sport va madaniyat sohalaridagi rivojlanishlarga qaratilgan. Bularning barchasi matonat egalarining o‘z potensialini ochish va jamiyatdagi o‘rni va ta‘sirini kuchaytirishga yordam berishi, xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlar, qo‘shimcha kvotalar, ijtimoiy himoya, huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi, matonat egalari, tarix va revolyutsiya, mehnat huquqi, pasport, ma‘naviy barkamollik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surgan milliy, mintaqaviy va xalqaro tashabbuslar keng jamoatchiligimiz hamda jahon hamjamiyati tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmokda. Bunday ijobiy munosabat, bir tomondan, O‘zbekistonning davlatimiz rahbari belgilab bergan milliy taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay, dadil odimlayotganini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan, xalqaro maydonda o‘rni va nufuzi tobora mustahkamlanib borayotganiga yana bir yorqin dalildir. [2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo‘yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlarning ahvoli kompleks va chuqur o‘rganildi. Shu yilning o‘zida “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son farmoni imzolandi, unga muvofiq kelgusi yillarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 2 iyunda qabul qilingan “Oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 417-sonli qarorida oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni

qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi belgilandi. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7 iyun kuni «Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani (Nyu-York, 2006 yil 13 dekabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonunni imzoladi. Hujjat Qonunchilik palatasi tomonidan 2021 yil 18 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2021 yil 29 mayda ma’qullangan edi. [3]

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo‘lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Xususan, davlatning nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta’lim olishiga ko‘maklashishi bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta’minlash maqsadida mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son talab etilmoqda.[4]

Ta’kidlash joizki, avvalroq Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun imzolagan bir qator qonun hujjatlari negizida Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish, hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishini har tomonlama rag‘batlantirish masalasi bilan bog‘liq bo‘lgan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan va 2021-yil 16-yanvar kuchga kirgan O‘RQ-641-son Qonun [1] edi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish: O‘zbekiston tajribasi Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash hamda himoya qilish masalalari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjati bilan tartibga solinmoqda. Bu o‘rinda Konstitutsiya, 40 dan ziyod qonun va 160 dan ortiq qonunosti hujjati ko‘zda tutilgan.

Jumladan, O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”, “Aholi bandligi to‘g‘risida”, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish nogironligi bo‘lgan shaxslarni himoya qilishning bir qator ustuvor yo‘nalishlarini ilgari surdi. Xususan, Bosh kotib fikricha, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamma joyda har qanday imkoniyatlardan teng foydalana olishiga sharoit yaratish uchun investitsiyalar zarur. Bu esa katta miqdordagi moliyalashtirishni taqozo etadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy

manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan. huquqiy savodxonligini yuksaltirish; nogironlik belgisi bo’yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro’yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish; yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo‘lgan vatanparvar shaxsni shakllantirish, ularda turli hayotiy bosimlarga qarshi immunitet hosil qilish; ijtimoiy himoya qilish bilan bir qatorda, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish; iqtidorini qo‘llab-quvvatlash, huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi ijodiy va intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish; jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sport bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni keng dunyo qarashini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Tibbiy tekshiruvdan o‘tkazilayotgan nogironligi bo‘lgan shaxslarning klinik-funksional, ijtimoiy, kasbiy-mehnat va psixologik ma’lumotlarini kompleks baholash asosida uning sog‘lig‘i yo‘qolganligi darajasini hamda organizmining funksiyalari turg‘un buzilganligi sababli hayot faoliyati cheklanganligi darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning boshlanishi sababi hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyoji to‘g‘risida tavsiyalar berish va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari, surdotexnika, tiflotexnika vositalari yoki boshqa vositalar, shu jumladan o‘rindiqli aravachalar, protez-ortopediya moslamalari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytiruvchi apparatlar va signalizatorlar, subtitrl yoki surdotarjimali videomateriallar, shuningdek maxsus avtomobillar bilan ta’minlash.

Birinchi navbatda, nogironlik bu tibbiy emas balki itimoiy tushuncha ekanligini anglashimiz kerak! «Nogironligi bo‘lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to‘liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxs». «Nogironlik – bu tana funksiyalari buzilgan insonlar, munosabat va infratuzilma bilan bog‘liq to‘siqlar orasidagi o‘zaro aloqa natijasida nogironlik holati yuzaga keladi. Bu to‘siqlar ushbu insonlarni jamiyat hayotida barcha bilan teng ravishda to‘laqonli va samarali ishtirok etishlariga yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli, nogironligi bo‘lgan shaxs «kasal» deb qaraladi.

Insoniyat o‘z tarixi va revolyutsiyasida har doim ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan imkoniyatlari cheklangan odamlar bilan to‘qnash kelgan. Rivojlanishning turli davrlarida

ularga munosabat ham turlicha bo‘lgan. Qadim zamonlardan beri olimu, ulamolar, faylasuflarni og‘ir kasalliklarga chalingan yoki rivojlanishdan orqada qolgan kishilarning yashashi, ularni davolash va o‘qitish masalalari o‘ziga jalb etib kelgan. Qadimgi Yunoniston, Rim, Vizantiya, Sharq faylasuflari va donishmandlari, jumladan Aristotel, Seneka, Tsitseron va boshqalarning asarlarida jamiyat va jismoniy imkoniyatlari cheklangan insonlar o‘rtasidagi munosabat mavzusi ham e‘tibordan chetda qolmagan. Masalan; Qadimgi Yunonistonda harbiy nogironlar oilasi bilan davlat qaramog‘ida bo‘lgan. Rimda esa nogironlarga yer uchastkalari, janglarda qo‘lga kiritilgan o‘ljadan ulush ajratilgan, shuningdek pul ta‘minoti belgilangan. Nogironlar jamiyatning obro‘-e‘tiborli kishilari sanalishgan, hamda ijtimoiy ta‘minotning anchayin rivojlangan tizimi ular xizmatida bo‘lgan. Sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammosi mavjud kishilarning ikkinchi toifasi esa odatda g‘aribxonalarda, nogironlar uylarida saqlangan. Bu yerda ular taom va boshpana bilan ta‘minlangan. Qadimgi Rusda mayib-majruxlar uchun ilk g‘aribxonalar Ivan Grozniy podsholigi davrida paydo bo‘lgan (1551 yil).[6]

“Bugun ma‘rifatga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Buyuk tarixda hech narsa iza ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom — haqiqatni anglash demakdir, u odamzodni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi”, – deya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta‘kidlanishi bejiz emas[5].

Alloma Abdulla Avloniy “Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur? degan savolga

“Birinchisi - uy tarbiyasi. Bu vazifa ona zimmasidadir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir” deb javob berganlar. Bu so‘zlar zaminida barchaning farzand tarbiyasiga mas‘ulligi ko‘rinib turibdi. Nogironlarning bilim darajasi, kasbiy malakasi, ma‘naviy va ruhiy barkamollik kabi fazilatlari va ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga salmoqli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo‘lib yashashga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Inklyuziv ta‘lim – o‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta‘lim jarayonidir[7] Inklyuziv ta‘lim muammosi bilan bog‘liq asosiy atamalarni ko‘rib chiqaylik. Inklyuziv ta‘lim (fr. Inclusif - shu jumladan, lotincha kiritish - men xulosa qilaman, kiritaman) - bu barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan, hamma uchun ta‘lim olish imkoniyatini yaratadigan umumiy ta‘limni rivojlantirish jarayoni, maxsus ehtiyojlar. Inklyuzivlik turli xil qobiliyatli bolalarni maktab hayotining barcha sohalarida to‘liq qamrab olishni anglatadi, bunda boshqa bolalar ham zavq va quvonch bilan qatnashadilar. Bu maktab maydonini barcha bolalarning ehtiyojlari va talablariga javob

berish uchun, istisnosiz, farqlarni qadrlash va hurmat qilish uchun real moslashni talab qiladi. Bu inklyuziya sinfda maxsus yordam va qo‘llab-quvvatlashni talab qilmaydi, agar zarur bo‘lsa, turli imkoniyatlarga yega bolalar uchun sinfdan tashqarida o‘qishni talab qilmaydi. "Integratsiya" va "inklyuziya" ikki atama bo‘lib, ko‘pincha bir-birining o‘rniga ishlatiladi, chunki ko‘p o‘qituvchilar va maktablar ularni sinonim deb bilishadi. Inklyuziya integratsiyadan farq qiladi, chunki boshidanoq barcha bolalar, istisnosiz, umumiy ta‘lim tizimining bir qismi bo‘lishadi. Shundan kelib chiqib boshlang‘ich ta‘limdanoq o‘qitish sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta‘lim standartlari me‘yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta‘lim, sog‘liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta‘lim xizmatlari bilan ta‘minlash borasidagi o‘zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi. [9]

Imo-ishora nutqini rivojlangan tabiiy tillardan biri sifatida tan olinishni, karlar hayotida, kommunikativ va kognitiv faoliyatida imo-ishora nutqini muhim roli tan olinishi kar insonlarning jamiyat a‘zolari sifatida qarashlarning o‘zgartishiga olib keldi.[8]

Oligofrenopedagogika — aqli zaif bolalar ta‘lim i, tarbiyasi hamda ular taraqqiyotidagi ruhiy, jismoniy nuqsonlarni to‘g‘rilovchi (E.Segen (4812— 1880)) fan sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, yurtimizdagi yordamchi maktablar ommaviy maktablar singari yosh avlodga ta‘lim tarbiya berish, ularni jamiyatning foydali kishisi bo‘lib yetishtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yordamchi maktablarning maxsus, xususiy vazifalari ham mavjud bo‘lib. Bularga aqli zaif o‘quvchilarning psixofizik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga alohida yondashgan holda bilim berish orqali bilish jarayonlarini tuzatib borish vazifasi kiradi. Yordamchi maktablar aqli zaif bolalar uchun dastlabki va oxirgi o‘quv yurti boiganligi sababli, o‘quvchilar maktabni bitirgandan so‘ng bevosita hayotga yo‘llanma olishlarini hisobga olib, ularga maktabda turli xil kasbiy mehnat ko‘nikmalari, malakalari beriladi. Yordamchi maktablarda davolash ishlari umumiy ta‘lim-tarbiya ishlari bilan birgalikda qo‘shib olib boriladi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun Brayl tizimi bo‘yicha xilma-xil adabiyotlar yaratilgan. Bular darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, badiiy, ilmiy-ommabop, musiqiy adabiyotlar. Brayl (Lui Brayl 1809-1852y. bo‘rtma nuqtali yozuv ixtirochisi) tizimi bo‘yicha chiqarilgan hamma darsliklar relyefli rasmlar, chizmalar, sxemalar bilan bezatilgan. Qoldiq ko‘ruv saqlangan ko‘zi ojizlar uchun relyefli va rangdor nashrli o‘quv qo‘llanmalari chiqarilgan.[10]

Abu Ali ibn Sino aytadiki, “Shuni bilginki, yaratuvchi, - uning ulug‘ligi ortsin, - har bir hayvonga va har bir a‘zoga imkoniyat ko‘targanicha o‘ziga loyiq va uning ishlari va axvoliga munosib mizoj berdi. Buning xakikatini tekshirish tabibga emas, faylasufga taalluklidir. Odamga shu olamda bo‘lishi mumkin bo‘lgan va odamning ta‘sir ko‘rsatish va

ta’sirlanishiga vosita bo‘ladigan quvvatlarga munosib eng mo‘tadil mizojni berdi; shuningdek, xar a’zoga loyik mizoj berib, ba’zi a’zoni issiqroq va ba’zisini sovuqroq, ba’zisini quruqroq va ba’zisini xo‘lroq qildi. Shu bilan birga, Ibn Sino shuni ham ta’kidlaydiki, bu mo‘tadil mizoj nafaqat inson tanasining sog‘lom faoliyat yuritishini ta’minlaydi, balki uning ruhiy, aqliy va axloqiy kamolotiga ham asos bo‘ladi. Har bir a’zo o‘ziga xos vazifasini bajarishi uchun yaratuvchi tomonidan berilgan mizojga muvofiq holda ishlaydi. Ana shu muvozanat saqlansa, inson jamiyatda faol, salohiyatli va barkamol shaxs sifatida yashashi mumkin bo‘ladi. Mizojlarning buzilishi esa salomatlikning izdan chiqishiga, ruhiy va jismoniy noxushliklarga olib keladi. Shu sababli, inson o‘z tanasidagi bu tabiiy muvozanatni saqlashga intilmog‘i, o‘z holatiga chuqur nazar solmog‘i lozim. Bu esa, Ibn Sino ta’riflaganidek, insonni faqat tabib emas, balki faylasuf sifatida o‘z mohiyatini anglash sari yetaklaydi. [11]

Nogironlar jamiyatning teng huquqli a’zolari sifatida mehnat qilish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lish huquqiga egadirlar. Ularning mehnat huquqini ta’minlash, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini hurmat qilishning muhim mezonidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida har bir fuqaroga mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlariga ega bo‘lish huquqi kafolatlangan.[12] O‘zbekiston Respublikasi “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan) 21-moddasida nogironlarning bandligi, ularga teng imkoniyatlar yaratish va kamsitmaslik tamoyili belgilab qo‘yilgan.[13] Mehnat kodeksida nogironlar uchun alohida bandlar ajratilib, ularga yengilliklar va ish sharoitlari yaratish majburiyati ish beruvchining zimmasiga yuklatilgan (2009-yilgi tahriri va 2023-yilgi o‘zgarishlar bilan).[14] Har yili davlat va xususiy sektor korxonalarida nogironlar uchun maxsus ish o‘rinlari ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, korxonalarda ishchilarning kamida 3 foizi nogiron bo‘lishi lozim. Nogiron shaxslar uchun masofaviy ish, moslashtirilgan ish joylari, qisqartirilgan ish vaqti, ijtimoiy himoya paketlari joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 13-dekabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-43-son qarori bilan nogironlar uchun ishga joylashishda kvotalar, ish beruvchilar uchun rag‘batlantiruvchi mexanizmlar ishlab chiqildi.[15] Amaldagi qonunchilikda nogironlar uchun keng imkoniyatlar nazarda tutilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda ularning amaliyotda to‘liq amalga oshmasligi kuzatiladi. Jumladan:

Ish joylarida mos sharoitlarning yetarli emasligi;

Ish beruvchilarning nogironlarni yollashga sust qarashi;

Axborot va maslahat xizmatlarining cheklanganligi.

Shu bois, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ish beruvchilar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish;

Nogironlar uchun kasb-hunar markazlari va malaka oshirish kurslarini ko‘paytirish;

Ishga joylashishda raqamli platformalar orqali teng imkoniyat yaratish.

Nogironlar jamiyatning teng huquqli a‘zolari sifatida mehnat qilish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lish huquqiga egadirlar. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, jumladan, Konstitutsiya va "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi Qonun, nogironlarning mehnat huquqlarini ta‘minlash va ularga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. O‘zbekiston hukumati nogironlar uchun bandlik va ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini ishlab chiqib, bu boradagi mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda.

Biroq, amalda ayrim muammolar mavjud. Ish joylarida mos sharoitlarning yetarli emasligi, ish beruvchilarning nogironlarni yollashga sust qarashi va axborot xizmatlarining cheklanganligi kabi omillar bu borada to‘siqlarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli, quyidagi takliflar ilgari surilgan:

Soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali ish beruvchilarni nogironlarni yollashga rag‘batlantirish. Kasb-hunar markazlari va malaka oshirish kurslarini ko‘paytirish, nogironlarni yangi kasblarga o‘rgatish va ularning mehnat bozori uchun tayyorligini oshirish.

Raqamli platformalar orqali ishga joylashishda teng imkoniyat yaratish nogironlarga masofaviy ishlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Ushbu takliflar nogironlarning mehnat huquqlarini to‘liq ta‘minlashga, ijtimoiy adolatni o‘rnatishga va jamiyatda ularning teng huquqli a‘zolari sifatida faoliyat yuritishiga ko‘maklashadi. O‘zbekistonning qonunchilik tizimi bu borada doimiy ravishda yangilanib, nogironlar uchun qulay sharoitlar yaratish uchun yangi mexanizmlar ishlab chiqmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi[16].

Parasport, bu-jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatda teng huquqli faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan muhim sohaga aylanishi O‘zbekistonda yangicha rivojlanish bosqichiga kirgan. O‘zbekiston hukumati nogironlarga ijtimoiy imkoniyatlar yaratish, ularning sportda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, jamiyatdagi o‘rni va salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston parasportining rivojlanishi, parasportchilar uchun yaratilgan sharoitlar va muvaffaqiyatlar tahlil qilinadi. O‘zbekiston Parasportining Rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining nogironlar huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirgan chora-tadbirlari parasport sohasining rivojlanishiga katta turtki bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi Qonunda nogironlarga teng imkoniyatlar berish va ularni jamiyatga integratsiya qilish ta‘minlangan [12].

O‘zbekiston parasportining asosiy rivojlanish bosqichlarini shunday tasvirlash mumkin:

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Paralimpiyachilari Komiteti tashkil etildi.

2020-yilning oxiriga kelib, O‘zbekiston Respublikasi paralimpiya sportiga qiziqish va ishtirokni kuchaytirish uchun keng ko‘lamli tadbirlarni amalga oshirdi. Parasport faqat nogironlar uchun sport turlari emas, balki ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim vositadir. Parasport shaxsning nafaqat jismoniy salomatligini

yaxshilaydi, balki uning ijtimoiy va psixologik farovonligini ham oshiradi [20]. O‘zbekiston pasporti nafaqat nogironlarni sportga jalb qilishni, balki ularni ijtimoiy integratsiyalashni ham nazarda tutadi.

Birinchi Paralimpiyachilarimizning tajribalari va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari, jumladan 2020-yilgi Tokio Paralimpiyadagi yutuqlar (yengil atletika, suzish, judo) O‘zbekistonning pasportni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlarining natijasidir. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yilda e’lon qilingan "Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-43-son qarori pasportni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi [15].

O‘zbekiston pasportchilari xalqaro maydonda ko‘plab yutuqlarga erishdilar. Ayniqsa, Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston jamoasi yuqori natijalar ko‘rsatdi. 2020-yil Tokio Paralimpiyasida O‘zbekistonning pasportchilari 8 ta medalni qo‘lga kiritdi (3 oltin, 4 kumush, 1 bronza). Bu yutuqlar O‘zbekistonning pasportga bo‘lgan yuksak e’tiborini va pasportchilarning qo‘llab-quvvatlanishini namoyon qiladi [17].

Pasport sohasidagi asosiy muammolardan biri – bu sport inshootlarining nogironlar uchun moslashmaganligi, shuningdek, ba’zi hududlarda pasportga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish zarurati. Pasport sohasida ayrim ijtimoiy stereotiplar mavjud bo‘lib, bu nogironlarni sportga jalb qilishda to‘siq bo‘ladi. Sport inshootlarini nogironlar uchun moslashtirish: Barcha yangi qurilayotgan sport inshootlari nogironlar uchun mos bo‘lishi kerak. Ta’lim va o‘qitish dasturlari: Nogironlarni sportga jalb qilish va ularni tayyorlash uchun ko‘proq ta’lim va o‘qitish dasturlarini amalga oshirish zarur. Soliq imtiyozlarini kengaytirish: Nogironlar uchun sport tashkilotlari va faoliyatlariga soliq imtiyozlari yaratish. Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston pasportining xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlash uchun global pasport tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur [18].

2024-yilgi Parij Paralimpiyadagi O‘zbekiston pasportchilari uchun yuksak muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratdi. O‘zbekistonning pasportga bo‘lgan e’tibori va yuksak qo‘llab-quvvatlashi natijasida, jamoamiz Parij Paralimpiyasida nafaqat yuqori sport natijalarini ko‘rsatdi, balki sportchilarimizning xalqaro maydonda muvaffaqiyatli ishtiroki orqali, mamlakatimizning pasport sohasida ulkan qadamlar qo‘yganligini ta’kidlash mumkin.

Bu muvaffaqiyatlar O‘zbekiston pasportining rivojlanishiga, uning xalqaro arenada tanilishi va jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatdagi o‘rni va salohiyatini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilayotganining ishonchli dalilidir. Shuningdek, Parij Paralimpiyasi O‘zbekistonning pasport sohasidagi yutuqlarini yanada oshirish, sport inshootlarini moslashtirish va ta’lim dasturlarini kengaytirish zaruratini yana bir bor ko‘rsatdi.

O‘zbekistonning pasportga bo‘lgan yuksak e’tibori va pasportchilarga yaratilgan imkoniyatlar, kelajakda ham muvaffaqiyatlarni ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ma'naviy barkamollik insonning o'zini anglash, axloqiy qadriyatlarni tushunish va jamiyatdagi o'z o'rnini to'g'ri belgilashda muhim ahamiyatga ega. Nogironlar uchun ma'naviy barkamollik, o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faoliyatda teng huquqlilikni ta'minlash va jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlashga katta yordam beradi. Ma'naviy barkamollik, ularning nafaqat jismoniy, balki psixologik va axloqiy jihatdan rivojlanishiga, jamiyat bilan yanada mustahkam integratsiyalashishiga yordam beradi.

Ma'naviy barkamollik, birinchi navbatda, insonning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishida o'zgartirishlar kiritadi. Bu, nogironlar uchun o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga va jamiyatda teng huquqli o'rni borligini anglashga yordam beradi. Navoiyning asarlarida ma'naviyat va insoniylik, har bir insonning o'z o'rnini topishda, jamiyatga qimmatli hissa qo'shishda qanday yordam berishini yoritib beradi [19]. Navoiy, o'z asarlarida, insoniyatni ilm va ma'rifatga yetaklash orqali ma'naviy barkamollikka erishish kerakligini ta'kidlaydi.

Nogironlar hayotida ma'naviy barkamollikning roli, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, shuningdek, jamiyatdagi o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlarida ma'naviy barkamollikni rivojlantirish, insonning ijtimoiy integratsiyasiga va jamiyatda teng huquqlilikka erishishiga xizmat qiladi. Fitratning fikricha, ma'naviy barkamollik nafaqat o'zini anglash, balki jamiyatga faol hissa qo'shish imkonini yaratadi [20].

Nogironlarni ijtimoiy hayotga jalb qilishda, ma'naviy barkamollikning alohida o'rni bor. Ularning sportda, madaniyatda va boshqa sohalarda faol ishtirok etishlari, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va jamiyatda teng huquqli o'rinlarni egallashlariga yordam beradi. Gillis va Smith (2008) pasportni nogironlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy barkamollikni mustahkamlashga yordam beruvchi vosita sifatida ko'rgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, pasport nogironlarning jismoniy va ma'naviy farovonligini yaxshilaydi, shuningdek, ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi [21].

Jadidlar pedagogikasi ham nogironlarning ma'naviy barkamolliklarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Munavvar Qorining ta'lim tizimida, har bir insonning barkamollikni rivojlantirishga qaratilgan g'oyalari, nogironlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini oshirishda, ma'naviy barkamollikni shakllantirish juda muhimdir [22].

Nogironlarning ma'naviy barkamolligi, ularning jamiyatda teng huquqli va faol ishtirokchi bo'lishlariga yordam beradi. Ma'naviy barkamollik, nafaqat nogironlarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishlariga yordam beradi, balki jamiyatda o'z o'rnini topishga, teng huquqlilikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi. O'zbekistonning pasport sohasida amalga oshirgan sa'y-harakatlari, ma'naviy barkamollikni rivojlantirish va nogironlarning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlashda ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

XULOSA

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlarini ta'minlash masalasi, nafaqat ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri, balki har qanday huquqiy demokratik davlatning insonparvarlik mezonlariga asoslangan taraqqiyotini belgilovchi

ustuvor qadriyatlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, xalqaro standartlar, xususan BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi” talablariga muvofiq tarzda shakllanib, jamiyatda inklyuzivlik, tenglik va adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qabul qilingan qonunlar, prezident farmon va qarorlari, hukumat dasturlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning nafaqat ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, balki ularning iqtisodiy, madaniy, ta‘lim va mehnatga oid huquqlarini ham to‘laqonli ta‘minlashni maqsad qilgan. Jumladan, 2021-yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohadagi davlat siyosatining tamoyillari, davlat organlari va tashkilotlarning vakolat va majburiyatlarini aniq belgilab berdi. Qonun asosida nogironligi bo‘lgan shaxslarning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish – davlat oldidagi asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Amaliyotda esa bu tamoyillar turli yo‘nalishlarda o‘z aksini topmoqda: infratuzilmani moslashtirish, ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ta‘lim va bandlik tizimida teng imkoniyatlarni yaratish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi texnologik yechimlarni joriy etish kabilar shular jumlasidandir. Jumladan, inklyuziv ta‘limni rivojlantirish orqali nogironligi bo‘lgan bolalarning umumiy ta‘lim tizimiga integratsiyalashuvi ta‘minlanmoqda. Maxsus transport vositalari, ijtimoiy yordam markazlari, reabilitatsiya xizmatlari ham zamonaviy yondashuvlar asosida yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, Ijtimoiy Himoya Milliy Agentligi — O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini boshqarish va rivojlantirishga mas‘ul bo‘lgan davlat organi bo‘lib, u ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning, jumladan, nogironlar, keksalar, kam ta‘minlangan oilalar, yetim bolalar va boshqa ijtimoiy guruhlarining huquqlarini himoya qilish, ularga yordam berish va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan siyosatni amalga oshiradi. Nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash: Agentlik nogironlar uchun turli ijtimoiy xizmatlar, maxsus yordam, ish o‘rinlari, ta‘lim va kasb-hunar markazlari, tibbiy xizmatlar va reabilitatsiya xizmatlarini taqdim etib kelmoqda. Nogironlarni mehnat bozoriga jalb qilish borasida ham Ijtimoiy Himoya Milliy Agentligi nogironlar uchun maxsus ish o‘rinlari yaratib, ularning mehnat bozorida faol ishtirok etishini ta‘minlayapti. Buning uchun maxsus kasb-hunar markazlari va o‘quv dasturlari tashkil etilgan.

Jamiyatda nogironlarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish: Ijtimoiy Himoya Milliy Agentligi tomonidan nogironlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarining jamiyatda teng huquqli a‘zo bo‘lishini ta‘minlash, ular haqida salbiy stereotiplarni bartaraf etish uchun targ‘ibot ishlari olib borilayotganligi, bu nogironlar hayotini tupdan o‘zgartirmoqda. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlashda faqat davlat organlarining emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoatchilik va xususiy sektorning ham faol ishtiroki ta‘minlanishi zarur. Ularning tashabbuskorligi, ijtimoiy sheriklik asosida olib borilayotgan loyihalar sifati, aholining ongini o‘zgartirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari orqali jamiyatda inklyuziv tafakkur shakllanadi. Ayni paytda bu masalada xalqaro tajribani o‘rganish, uni

milliy sharoitlarga moslashtirib tatbiq qilish borasida ham bir qancha ishlar olib borilayotganligi quvonarli holat.

Xulosa qilib aytganda, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini to‘laqonli ta‘minlash — bu faqatgina huquqiy yoki ijtimoiy masala emas, balki mamlakatning taraqqiyot strategiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘rtni ta‘minlashga xizmat qiladigan kompleks jarayondir. Bu boradagi islohotlar uzluksiz davom ettirilmoqda, tizimli monitoring va tahlil asosida takomillashtirilmoqda, eng muhimi esa – butun jamiyat ongida “nogironlik – to‘siq emas, imkoniyat” degan yondashuvni shakllantirilyapti. Haqiqiy inklyuziv jamiyat barpo etish mumkin bo‘lgan shahdam qadamlar tashlanayapti.

REFERENCES:

1. 2020-yil 22-iyuldagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi Qonun / <https://lex.uz/docs/-5049511?type=doc>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning 75-sessiyasida so‘zlagan nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/4469>
3. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani (nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida O‘RQ-695-son 07.06.2021/<http://lex.uz//ru/docs/-5447413>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son/ <http://lex.uz//docs/-6480342>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 yili 18-19 oktyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashi (TIVK) 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidan.
6. Nogironlar bilan itimoiy ish olib borish texnologiyasining umumiy masalalari <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-18243.ppt> 1-mavzu b/5
7. Педагогик атамалар луғати. – Т.: “Фан”, 2008. –Б.47.
8. Daktil va imo-ishora nutqiga o‘rgatish Z.N.Mamarajabova, M.M. Abdullayeva. Toshkent.2022.11.b.
9. Inklyuziv ta‘lim: nazariya va metodika. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova Chirchiq. 2022. b.4.
10. Maxsus pedagogika (Darslik). —T.: «Fan va texnologiya», 2014,9-10-354 bet. Hikmatlar xazinası. T.: G‘afur G‘ulom, 1993. B.69
11. Abu Ali ibn Sinoning "Tibbiyot kanoni" (al-Qanun fi al-Tibb) asari 1961.
12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2021.
13. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 15-oktabr.
14. Mehnat kodeksi, 2009-yilgi va 2023-yilgi tahrirlar.
15. PQ-43-son Prezident qarori, 2021-yil 13-dekabr.

16. Xalilov, N. (2021). Nogironlarning mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi nashriyoti.
17. O‘zbekiston Paralimpiyachilari Komiteti (2020).
18. Moen, A., Balasubramanian, A. (2021). "Parasports: Social Inclusion and Opportunities for Disabled Athletes," Journal of Sports Psychology.
19. Navoiy, M. (2009). Fuzuli. Toshkent: Sharq nashriyoti.
20. Fitrat, A. (1990). O‘tmish va kelajak. Toshkent: Fan nashriyoti.
21. Gillis, S., & Smith, P. (2008). The social integration of disabled athletes: A review. Disability Studies Quarterly, 29(1), 51-66.
22. Munavvar Qori. (2000). Jadidchilik va ta’lim.